

# YOSH O'RGANUVCHILARGA GAPIRISH KO'NIKMASINI O'RGATISHNING BIR QANCHA USULLARI

**Solihonova Aminabonu Davronovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

+998938389502

[asqarbek9425@mail.ru](mailto:asqarbek9425@mail.ru)

## Annotation

This article describes some strategies and methods to teach young learners and the ways how to use them. Also, it includes some principles for teachers to organize their lessons efficiently.

## Key Words:

Methodology, speech, double speech, single speech, connection of sciences.

## Аннотация

В этой статье описаны некоторые стратегии и методы обучения молодых учащихся и способы их использования. Кроме того, в него включены некоторые принципы, позволяющие учителям эффективно организовывать свои уроки.

## Ключевые слова:

методология, речь, двоякая речь, одиночная речь, связь наук.

Har bir sohani o'rganishdan oldin avvalo uni sinchiklab o'rganib chiqamiz. Bunda esa bizga aynan shu sohani metodikasi yordam beradi. Ayniqsa yosh o'rganuvchilarga gapirish ko'nikmasini o'rgatishning metodikasi boshqa fanlarnikidan farq qiladi. Yosh o'rganuvchilarda avvalo boshqa tilni o'rganayotganda ularda xato va kamchilik qilib qo'yishdan qo'rquv bo'ladi. Birorta so'zni xato talaffuz qilib qo'yishdan chuchib uni aytishga ko'nikma bo'lmaydi. Shu sababli o'rgatuvchi avvalo har bir o'rganuvchini psixologiyasi bilan tanishib o'rganib chiqishi kerak. Chunki har bir insonni o'zini o'rganish yo'llari bo'ladi. Kimdir ovoz chiqarib o'qib o'rganadi, yana kimdir esa eshitib. Ba'zilar esa biladi-yu ammo tog'ri - noto'g'ri ekanligiga ishonchi komil bo'lmay aytmay turadi. Shuning uchun o'rgatuvchi inson har bir o'quvchisini psixologiyasi bilan yaxshilab tanishib uni o'rganib chiqishi kerak. Chet tillarida talaffuz qoidalarini bir biridan farq qiladi. Masalan ingliz tilida tovushlar o'zgarib so'z o'rtasida kelganda boshqacha talaffuz qilinadi. Biz avvalo til o'rgatishda aynan o'sha tilning qoidalarini bilan birga amaliy isbotlar bilan o'quvchilarga ko'rsatib borishimiz kerak. Chet tilida gapirayotgan shaxs avvalo o'sha tilning mohiyatini tushuntirib, his etib, boshqa tinglovchilarga gapirib yetkazib berishi lozim. Buning uchun esa insonga kuchli malaka o'ziga bo'lgan ishonch zarur. Chet tilida gapirayotgan shaxs har bir so'z talaffuziga e'tibor bilan gapirib tinglovchilarga yetkazib bera olishi kerak. Gapirish ko'nikmasini bir qancha usullari mavjud bular:

- O'rganilayotgan chet tilini lug'atini va grammatikasini o'rganish.
- Talaffuz qoidalarini o'rganish va ko'nikma hosil qilish.
- Qo'rquvni, hayajonini bartaraf qilish hamda ko'proq shu tilda gapirishni rivojlantirish.

Insonda shunday xususiyat bor-ki qaysidir sohani o'rganishda qattiylik bilan matonat bilan kirishsa shunda maqsadga erishish osonroq bo'lasi. O'qib o'rganganimizni gapirib so'zlar bilan ifodalab bera olishimiz zarur. Gapirish ko'nikmasi insonda tafakkurni rivojlantirishda yordam beradi. Inson tafakkuridagi gapirish detallari ko'payadi va biz shu ifoda etilgan detallarni chet tilida gapirib berishimiz kerak. Avvalo shunchaki yod olib aytish bu insonni xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Shuning uchun avvalambor tushunib yodlash kerak. Tushunib tafakkur orqali ifoda etsak uzoq vaqt xotiramizda saqlanib qoladi. Buyuk metodist va tilshunos olim professor Emmanuil Petrovich ingliz tilida nutqimizga tayyor holda kiritilgan 25% tayyor jumla borligini ta'kidlaydi. Gapirayotganimizda mavzuyimiz bo'yicha so'zlarni tanlab olamiz va shu bo'yicha

jumlalarni birlashtiramiz. Hamda gapni tuzamiz va uni tayyorligini sezamiz va nutqdan tilga chiqarib bayon etamiz. Insonda nutq rivojlanib til orqali bayon etiladi. Demak, biz gaplar orqali fikrimizni bayon etamiz. Gapirish ko'nikmasida Juft nutq va Yakka nutq degan tushunchalar mavjud. Juft nutq - ikki va undan ortiq shaxsni o'rtasidagi axborot almashinuvidir. Unga dialog va savol javoblar misol bo'la oladi. Bunda inson nutqi orqali rivojlanib talqin etiladi va tinglovchiga yetkazib beriladi. Yakka nutq - Birdan ortiq jummalarni ifodalab keladi. Bu bir kishini nutqidir. Bunda ketma-ket nutq ifodalanadi va bir maqsad sari yunaltirilgan bo'ladi. Nima haqida gapirishi aniqlanib, predmentga munosabati bildiriladi va tashqi nutqqa yetkazib beriladi. Gapirishga moyillik ichki va tashqi turtkilarda namoyon bo'ladi. Gapirish ko'nikmasini boshqa fanlar bilan o'zaro uzviy aloqadorligi mavjud. Masalan, ruhshunoslik, psixologiya, ta'limshunoslik, mantiqshunoslik fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tashqaridan olingan informatsiya insonni bosh miyasida aylanadi va biz uni gapirib tushuntirib beramiz. Shuning uchun o'rganilayotgan chet tilini ham tushinib o'rganib olsak gapirishimiz ham ancha oson kechadi. Yosh o'rganuvchilar boshqa - o'zlariga notanish bo'lgan chet tilini o'rganishdagi usullar ham avvalo tushunish ko'nikmasi bilan bog'liqdir. Gapirishimizda esa talaffuzlarga e'tibor qilishimiz kerak. Hatto bitta tovush talaffuzi noto'g'ri aytilsa ham gapdagi so'z manosi o'zgarib, boshqa ma'no ifodalab kelishi mumkin. Aynan ingliz tilida bitta talaffuz bilan ma'no o'zgaradigan so'zlar ko'p. Shu sababli gapirish ko'nikmasi qancha to'g'ri bo'lsa, shuncha ravon ma'no kelib chiqadi. Gapirishda har bir so'zni, gapni va matnni aytilish ohangiga va intonatsional farqiga borish va qoidalariga amal qilish kerak. Xohlaganicha talaffuz qilib ketish ham to'g'ri kelmaydi, albatta. Intonatsiyaga ham amal qilish zarur. Intonatsiyani faqat she'rlarda emas balki, matnlarda ham qo'llash lozim. Aytilayotgan so'zlarimizni his etib, tushunib, uni intonatsiya bilan talqin qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda gapirish ko'nikmasida har bir yosh o'rganuvchilarga o'rgatishda ularga o'rganish usullarini hamda metodlarini o'rgatish, ularni talaffuz qoidalari bilan tanishtirib talaffuzini to'g'rilash, insonda tushunchani shakllantirish gapirish ko'nikmasini o'rgatishni bosh omillari hisoblanadi. Intonatsiya va tovushni to'g'rilashni tushuntirish kerak. Gapirayotganda tushunib, fikr asosida to'g'ri va ravon aytish bu gapirish ko'nikmasini ancha rivojlantiradi. Metodikani psixologiya bilan birga olib borish lozim. Chunki o'rganuvchilarni o'rganish yo'llarini bilib shu yo'l orqali tushunchani shakllantirib olib borish kerak.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

1. J. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" T.: 1996 367b
2. O'. Hoshimov, I.Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" T.: - 2003 300